

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



Ro'yxatga olingan № **BD-60220500-1.14**  
2025 yil « \_\_\_ » avgusti

**ONTOLOGIYA VA BILISH NAZARIYASI**

**FAN DASTURI**

**Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar fanlar  
**Ta'lim sohasi:** 220 000 - Gumanitar fanlar(tillardan tashqari)  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60220500 - Falsafa

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda top 300 talik ro'yxatga kiruvchi **George Washington University, Washington D.C. AQSH (32 o'rin)** ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.

<https://bulletin.gwu.edu/courses/phil/phil.pdf>

Fan/modul kodi OBNB1322		O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-4-5-6	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Ontologiya va bilish nazariyasi	60	60	120	
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p>XXI asrda fan misli ko'rilmagan yutuqlarga erishdi. Axborot texnologiyalarining takomillashuvi insonning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirdi. Olam hodisalarini tushunish, ularni talqin qilishga yangicha yondashuv shakllandi, bu esa dunyoning hali o'rganilmagan, falsafiy mulohaza elagidan o'tmagan jihatlari ko'pligini namoyon qildi. Shu nuqtai nazardan, "Borliq va rivojlanish falsafasi". "Bilish nazariyasi" fani tabiat, jamiyat va inson borlig'ini tahlil qilishda muhim o'rinni egallaydi. Ushbu fan borliq-falsafiy tafakkurning asosiy kategoriyasi, moddiy va ruhiy borliqning o'zaro aloqasi, makon va vaqt muammosi, tabiat va inson borlig'i, biosfera va noosferaning uyg'unligi, miqdor va sifat o'zgarishlari, qarama-qarshiliklarning o'zaro bir-biriga o'tishi, ularning bir-biriga ta'siri, bilish haqidagi g'oyalarning tarixi, bilishda hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv darajalarning munosabati, ilmiy bilishda haqiqat muammosi, haqiqatning pragmatik, kogerent va korrespondent konsepsiyalari, nazariya va amaliyotning aloqadorligi, dunyoning ilmiy manzarasi va uning evolyusiyasi, yangi bilimlarni yaratishning falsafiy asoslari kabi masalalarni tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.</p> <p>Falsafa bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan ushbu o'quv dasturi zamonaviy ta'lim tizimi standartlari asosida ishlab chiqilgan. Dastur mavzulari dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalarining falsafa fanlari bo'yicha o'quv dasturlari va adabiyotlarining tahlili asosida takomillashtirildi.</p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarda o'zini qurshagan olam haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish, o'zining maqsadli faoliyatini tashkil etish, dunyoning ilmiy va ezoterik manzaralari mutanosibli bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – nazariy bilimlarga tayanib, amaliy ko'nikmalar, ijtimoiy hodisa va jarayonlarga nisbatan yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va shaxsiy munosabatni shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b>  <b>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>ASOSIY QISM</b>  <b>I - MODUL. ONTOLOGIYA</b></p> <p style="text-align: center;"><b>I - mavzu. Ontologiya falsafiy bilim asosi</b></p> <p>Ontologiya tushunchasining tahlili. Borliq kategoriyasi va sof borliq g'oyasi. Borliq va yo'qlik dialektikasi. G'oyalar nazariyasi va idelallashtirish metodlari. Ideal va real borliq. Borliqning sabablari va moduslari. Gen ontologiyasi. Tibbiyot ontologiyasi. Olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Yer tarixi. Insonning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Tirik tabiat yoki hayotning paydo bo'lishi. Dunyoning birligi va rang barangligi. Dunyoning yagonaligi va uning moddiyligi. Dunyoning yaxlitligi va rang-barangligi dialektikasi. Dunyo birligi haqidagi fan dalillari. Olamning chekliligi va cheksizligi. Potensial va aktual cheksizlik.</p>				

Intensiv va ekstensiv cheksizlik. Relyativistik kosmologiya nuqtai nazaridan olamning cheksizligi. Olamning kosmologik modellari. Kengayuvchi olam gipotezasi. I.Kantning kosmologik antinomiyalari va ularning hozirgi talqini. Yangi davr ontologiyasidagi o'zgarishlar dinamikasi.

## **2 - mavzu. Borliqning tuzilishi va shakllari**

Substansiya va substrat tushunchasi. Falsafa tarixida substansiyaga monistik, dualistik, plyuralistik yondashuvlar. Monizmning shakllari. Substansiyaning nazariy xususiyatlari va amaliy ahamiyati. Materiyaning paydo bo'lishi va shakllanishining asosiy bosqichlari. Materiya o'ld konsepsiyalar tasnifi. Materiya o'ld falsafiy va fizik yondashuvlar tahlili. Ob'ektning ontologik modeli. Materiya kategoriyasining funksiyalari. Materiyaning umumiylik nuqtai nazariyadan ta'rifi. Materiyaning tashkil topish darajalari. Mikro-makro va megaolamning tavsifi. Geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar.

## **3 - mavzu. Qadimgi dunyo va O'rta asrlarda borliq haqidagi tasavvurlar**

Qadimgi manbalarda borliq haqidagi stixiyali qarashlar. (Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rim). Parmenid borliq va yo'qlik haqida. Melisning borliq haqidagi ta'limoti. Platon ontologik karashlarining teistik xarakteri. Demokritning atomistik ta'limoti. Levkipp va Demokrit olamning tuzilishi haqida. Borliqni tushunishda Demokrit va Platon yondashuvlari. Aristotel borliq haqida. Geografiya va kartografiya sohasida bilimlarning paydo bo'lishi. Pifagorizmdagi matematik va tabiiy-ilmiy yutuqlar. Atomistik dastur. Matematik dastur. O'rta asrlar G'arb falsafasida haqiqiy borliq g'oyasi. Foma Akvinskiy ontologiyasi.

## **4 - mavzu. Sharq mutafakkirlarining borliq haqida ta'limotlari**

Sharq mutafakkirlari borlik va mavjudlik haqida. Forobiy Vaxdadi vujud va vaxdadi mavjud haqida. Beruniyning ontologik karashlari. Ibn Sinoning borliq haqidagi ta'limoti. J.Rumiyning panteizmi. A.Navoiy va A.Nasafiy borliq haqida. Mashrabning borliq haqidagi qarashlari. Sufizm da borliqqa munosabat.

## **5 - mavzu. Uyg'onish davri va Yangi davrda borliq haqidagi ta'limotlar**

Uyg'onish davrida borliq haqidagi panteistik qarashlar. Olamga ijodiy yangicha yondashuv. G.Galiley tomonidan «Yer dinamikasi» tushunchasi va tamoyillarining ishlab chiqilishi. Galileyning tabiatshunoslik fani rivojiga qo'shgan hissasi va uning tarixiy ahamiyati. N.Kuzanskiy boshlang'ich Renessansning vakili. XVI-XVII asrlarda biologiya sohasidagi bilimlarning rivoji. Kopernik ta'limoti. Dunyoning geliotsentrik sistemasi. Dj. Bruno: Kopernik ta'limotidagi xulosalar. Ingliz va fransuz maktabi vakillarining ontologik qarashlari. Nemis maktabi mutafakkirlari ijodida borliq va vaqt dialektikasi. Gegelning borliq haqidagi ta'limoti. Nyuton nazariyasi. Klassik mexanika asoslarining shakllanishi - XVII asr ontologiyasining buyuk yutug'i. Klassik mexanika ontologiya nazariy asosi.

## **6-mavzu. Borliqning klassik konsepsiyalari**

Yagona dunyoviy bozorning, umumiy ijtimoiy aloqadolarining yaratilishi, o'rta asr davridan so'nggi insonning shaxsiy qaramlikdan qutilishi, insonning insondan, jamiyatning tabiatdan begonalashuvi. Olam haqidagi ob'ektiv bilimlarni qabul qilish - tafakkur, aql vazifasi. Ratsionalizm g'oyalarining shakllanishi, «Aql asri» hukmronligining e'lon qilinishi, tabiiy-ilmiy bilimning maqsad va vazifalari, usullari haqidagi tasavvurlarning o'zgarishi. Tabiiy ilmiy bilimning mexanika qonuniyatlariga bo'ysunuvchi tabiiy hodisalar ekanligini tan olinishining shakllanishi. Tixo Bragening astronomiya sohasidagi birinchi ta'limotlari (1572).

K.Kepler: olamdagi uyg'unlikni izlanishidan, planeta orbitalari sirlarini o'rganish sari. Keplerning planetalar harakati dinamikasi haqidagi ta'limoti.

### **7 - mavzu. Borliqning noklassik konsepsiyalari**

Borliqning irratsional konsepsiyasi: A.Shopengauer va F.Nitsshening borliqqa noklassik munosabati. Borliq va jamiyatning tarixiy konsepsiyasi. Borliqni noklassik ekzistensial germenevtik tushunish. (Gadamer ta'limoti asosida). Borliq va mavjudlikni noklassik tushunish dialektikasi. (M.Xaydegger ijodi asosida).

### **8-mavzu. Borliqning tabiiy-ilmiy manzarasi**

XIX asming boshlarida fizikadagi ilmiy burilish. Kvant va relyativistik fizikaning paydo bo'lishi. Maxsus nisbiylik nazariyasining yaratilishi. Stok tomonidan gidrodinamika analogiyasiga asoslangan yangi aberratsiya nazariyasining yaratilishi. Eynshteynning gravitatsiya nazariyasining tamoyil va tushunchalari. Jism hajmini o'lchashning ikki usuli: 1. har qanday harakatdagi kuch bildiradigan tezlik orqali (inert hajm). 2. tortishish maydonidagi bo'ysunish (jism hajmi - gravitatsion massa). Umumiy nisbiylik nazariyasini eksperimental tekshiruv. Gravitatsiya nazariyasi haqidagi yangi tasavvurlar va ularning fizikadagi roli. Kvant fizikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Kvantlar gipotezasi. N.Borning atomlar nazariyasi, mos kelish tamoyili. Kvant mexikasining integratsiya muammosi. To'ldirish tamoyili. Nomumtoz fizikaning metodologik asoslari. Bilish jarayoni strukturasi va uning o'zgaruvchanligi. Relyativistik fizika metodologik asoslari tizimidagi tub o'zgarishlar. Elementar zarrachalar dunyosi. Gravitatsiyaning asosiy xususiyatlari. Elektron mavjudligining tan olinishi. Fizikada kuchsiz ta'sir mavjudligining tan olinishi. E.Fermi tomonidan neytron - mayda ko'rinmas zarrachalarning kashf qilinishi. Kuchli ta'sir - katta energiya manbai: cheksiz radiusning (gravitatsiya, elektromagnitizm) va kichik radiusning (kuchli va kuchsiz) o'zaro ta'siri. Subatom zarralarining tasnifi. Elementar zarralar nazariyasi. Uch kvark nazariyasi. Buyuk birlashtiruv modeli.

### **9 - mavzu. Borliq tuzilishida makon va vaqt dialektikasi**

Falsafa tarixida makon va vaqtga oid substansional va relyasion yondashuvlar, dinamik va statik konsepsiyalar. Makon va vaqtni falsafiy va fizik tushunishdagi umumiylik va farqlar. Makonning uch o'lchovligi va ko'p o'lchovligi. Makon va vaqtning metrik va topologik xossalari. Vaqt tartibi va yo'nalishi.

### **10 - mavzu. Ijtimoiy vaqt va uning shakllari**

Ijtimoiy vaqt. Tarix vaqti. Davrning ruhi va ijtimoiy vaqt uyg'unligi. Ijtimoiy makon va uning o'zgaruvchan xarakteri. Ijtimoiy makonda shaxsning roli. Hozirgi zamon madaniyatida vaqt va abadiylik. Mehnat vaqti va dam olish vaqti mutanosibligi.

### **11 - mavzu. Harakat borliqning yashash sharti**

O'zgarishlarning umumiy xususiyati. Harakat va harakatsizlikning o'zaro nisbati. Geraklitning abadiy harakat va rivojlanish haqidagi g'oyalari. Platon va Aristotelning harakat mavjudligiga oid qarashlari. N.Kuzanskiy harakatsiz markazning va harakatdagi hodisalarning mavjudligi haqida. So'fizm moddiy ob'ektlar o'zgaruvchanligining sababi haqida. (Ibn Arabiy, G'azzoliy). Harakat tiplari. Rivojlanish. Rivojlanishning asosiy va ikkinchi darajali yo'nalishlari. Hozirgi zamon falsafasida harakat tushunchasi. Harakat shakllarining umumiy tasnifi va ularning nisbiy mustaqilligi.

### **12- mavzu. Tabiat borlig'i**

Tabiat tushunchasining falsafiy tahlili. Falsafa tarixida tabiatga munosabat. O'zbekistonda tabiat va tabiiy sharoit dialektikasi. XX asrda ekologik vaziyat va uni bartaraf etish bo'yicha dunyo amaliyoti. Geografik muhit tushunchasi va geografik muhit parametrlari. Ijtimoiy rivojlanish va geografik muhitning o'zaro ta'siri. Geografik maktablar: tabiiy qonunlar konsepsiyasi, geografik determinizm, ijtimoiy determinizm, geosiyosat. Ekologiyaning kelib

chiqishi. Ijtimoiy ekologiya ta'limoti. Ekologik falokatlar tarixi. Koevolyusiya va invayronmentalizm tushunchasi. Jonli va jonsiz tabiat tushunchasi.

### **13 - mavzu. Biosfera va noosfera borliq shakli**

Biosfera haqidagi ta'limotlar. Inson biosfera rivojlanishining zaruriy bosqichi. Ekodinamikani global, mintaqaviy va mahalliy miqyoslarda rivojlantirishning ahamiyati. Hozirgi dunyoda ekologiya sohasidagi oqilona siyosatning zarurati. Lavlok ta'limotining ilmiy va ijtimoiy ahamiyati. G.Prins va R.Stemp ta'limotining biosfera rivojidagi o'rni. Irsiy injeneriya va uning biosferaga ta'siri. Noosfera – dunyo va koinot rivojlanishidagi evolyusion sakrash. Noosferani anglashda gumanizmga asoslangan ilmiy tafakkurning ahamiyati. Noosferaning chegaralari. Noosfera jarayonlari rivojlanishining turli jihatlari. Noosfera yoki insoniyat – geologik kuch sifatida. Biosfera va noosfera mutanosibligini ta'minlashning ijtimoiy ahamiyati.

### **14 - mavzu. Tabiat borlig'ida energiya fenomeni**

Energiya tushunchasi va energetizm. Energiya moddiy jismlarning o'z holatini o'zgartirish orqali muayyan vazifani bajarish qobiliyati. Energetizmning mohiyati. Energiyaning turlari. Ruhiiy energiya. Ezoterizm da ruhiy energiya. Fikr va tasavvur energiyasi. Energetik astral holatda jamoaviylik egrog'larlari.

### **15 - mavzu. In'ikos nazariyasi**

In'ikos tushunchasi va uning darajalari. In'ikosning xususiyatlari va shakllari. Mimikriya hodisasi. Biologik in'ikosning tabiiy jarayonlardagi ifodasi. In'ikosning psixik shakli. P.Anoxin nazariyasi. Axborotning konsepsiyalari. Axborot ta'sirlarining turlari. Torsion maydonlar. Universal kosmik gologramma. Bioenergiya axborot almashinuvi.

## **2 - MODUL. RIVOJLANISH FALSAFASI**

### **16 - mavzu. Dialektika - o'zaro aloqadorlik va rivojlanish haqidagi ta'limot**

Dialektikaning tarixiy shakllari va xususiyatlari: stixiyali dialektika, idealistik dialektika, falsafiy dialektik, klassik dialektika, ob'ektiv va sub'ektiv dialektika, noklassik dialektika, fojeaviy dialektika, dialektik teologiya yoki inqiroz teologiyasi, salbiy dialektika.

### **17 - mavzu. Dialektikaning muqobillari.**

Metafizika va uning tarixiy taraqqiyoti. Zamonaviy tabiatshunoslikda metafizik tafakkur. Mentallik, metafizik va fizik tadqiqot dasturlari. Metafizik tamoyillar tasnifi. Sofistika va eklektizm, dogmatizm, konservatizm.

### **18 - mavzu. Sinergetika – o'z-o'zini rivojlantiruvchi tizim**

Beqaror rivojlanish, rivojlanish yo'lidagi yanglishishlar, reduksionizm, o'z o'zini yaratish, ijodda xolistika. Statistlik qonunlar va ehtimoliy determinizm.

Sinergetika: bifurkatsiya, fluktuatsiyalar, attraktor, dissipativ tizimlar. Dialektika va metafizika rivojlanishning ikki konsepsiyasi va bilishning ikki metodi sifatidagi muqobilligi.

### **19 - mavzu. Dialektikaning asosiy tushunchalari**

Umumiy o'zaro aloqa va rivojlanishning dialektik tamoyillari: bilish, ob'ektivlik, umumiy aloqa va rivojlanish tamoyillari. Narsa tushunchasining tasnifi. Aloqa, o'zaro aloqa, aloqa uchun asos tushunchalarining tasnifi. O'zaro aloqaning tabiiy va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni. O'zaro ta'sirning zarurati va ahamiyati. Tarixiylik, sababiyat va tizimlilik tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlari. Rivojlanish tushunchasining mohiyati va mazmuni. Rivojlanishning tiplari. Taraqqiyotning fatalistik talqini. Ochiq tizimlarning rivojlanishi evolyusiyasi.

## **20 - mavzu. Falsafa va film<sup>1</sup>**

Idrok, ma'no, shaxsiy o'ziga xoslik va axloqiy agentlikning falsafiy muammolari va nazariyalari va ularning kino kontekstida tasviri. Kino va uning hosilalari (televidenie, video) aloqa asrida tabiiy va ijtimoiy olamlarni boshdan kechirishning asosiy yo'llari sifatida. Klassik va zamonaviy falsafada o'qishlar va kino nazariyasida; bir qator filmlar namoyishi. (PHIL 1062. Philosophy and Film. 3 Credits. Philosophical problems and theories of perception, meaning, personal identity, and moral agency and their illustration in the context of cinema. Cinema and its derivatives (TV, video) as prime routes to experience of the natural and social worlds in an age of communication. Readings in classical and contemporary philosophy and in film theory; screening of a series of films.)

## **21 - mavzu. Dialektikaning asosiy kategoriyalari tasnifi**

Falsafa tarixida kategoriyalarga munosabatning xilma-xilligi. Yangi davrda kategoriyalarga munosabat. Kant, Gegel, Shelling ijodida kategoriyalarning tasnifi. XX asrda kategoriyalarga munosabat. Kategoriya tushunchasi va uning tavsifi. Fan kategoriyalari, xususiy ilmiy kategoriyalar, falsafiy kategoriyalar.

## **22 - mavzu. Falsafiy kategoriyalar**

Falsafiy kategoriyalarining muhim guruhlarini: ontologik, substansional va munosabatdosh kategoriyalar. Maxsus falsafiy fanlar kategoriyalari. Atributlar va kategoriyalarning o'zaro aloqasi va farqi. Atributiv modelni tuzish tamoyillari. Atributiv modelning tuzilishi. Munosabatdosh kategoriyalarning tasnifi va ularning tabiiy va ijtimoiy jarayonlarda amal qilish mexanizmlari.

## **23 - mavzu. Jamoa tafakkuri rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.**

Ilmiy bilim rivojlanishining muqobilligi va ko'p variantlilik, yangi unutilgan eski sifatida, ilmiy taraqqiyot suratlarining notengligi – tebranuvchi rejim, fanda sub'ektiv fikrlarning mo'rtligi, kollektiv ong nuqsonlari, innovatsiyalar tabiati, yangilik – ilmiy an'analarning kesishmasi sifatida, yangilik – madaniy estafetalarning "mutatsiya"si sifatida.

## **24 - mavzu. Barqaror taraqqiyot metodologiyasi**

Barqaror taraqqiyot tushunchasining mohiyati. Sivilizatsiyaning barqaror rivojlanish tamoyillari. Insoniyatni tur sifatida saqlab qolishda barqarorlikning ahamiyati va zarurati. Barqaror rivojlanishning tizimli-ijtimoiy tabiiy mohiyati. Barqarorlik universal evolyusionizmning davomi (N.Moiseyev ta'limoti asosida). Barqaror rivojlanish va xavfsizlik. Barqaror globallashuvga o'tish jarayoni. Davlat va barqaror taraqqiyot.

## **25 - mavzu. Tabiiy jarayonlarda barqarorlik va beqarorlik dialektikasi**

Barqarorlikning o'zgaruvchanligi va shakllanish g'oyasi. Shakllanish g'oyasining uch ma'nosi. O'zgarish – moddiy ob'ektlarning o'zaro aloqaga kirishish jarayoni. Barqarorlik va o'zgaruvchanlikning nisbati va dialektikasi. Barqarorlik va beqarorlikni tushunishda – sinergetika yangi ilmiy paradigma. Nochiziqlik tushunchasining barqarorlik va beqarorlikda namoyon bo'lishi. Sinergetikada o'zgaruvchanlikning ikki ma'nosi.

<sup>1</sup> Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda top 300 talik ro'yxatga kiruvchi George Washington University, Washington D.C. AQSH (32 o'rin) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.

**26 - mavzu. Ijtimoiy-madaniy jarayonlarda barqarorlik va beqarorlik dialektikasi**

Ijtimoiy-madaniy jarayonda barqarorlik va beqarorlik. Metodologiya har qanday ijtimoiy faoliyatning usuli. Madaniyat tarixi, xalqlar o'rtasidagi aloqalar, shaxs, jamiyat va uning institutlarini madaniy-ma'naviy takomillashtirishning ahamiyati. Axborot ijtimoiy madaniy jarayonlarni qayd etish vositasi. Barqarorlik va beqarorlik ijtimoiy madaniy jarayonlarning omili. Ijtimoiy beqarorlik sharoitida ijod va taraqqiyotning o'rni.

**27 - mavzu. Rivojlanish paradigmalari va ijtimoiy ong stereotiplari**

Yaxlit sivilizatsiyani yaratish muammolari. Koinotni rivojlantirish paradigmalari. Rivojlanishning geosiyosiy paradigmalari. Tarixiy taraqqiyotning ijtimoiy va texnologik oqibatlari. Siyosiy fanlarda sivilizatsion paradigma.

**28 - mavzu. Ijtimoiy fanlarda ilmiy maktablarni rivojlantirish**

Ilmiy maktab tushunchasi va uning mezonlari. Ilmiy maktabda yetakchining roli. Ilmiy maktablar akkreditatsiyasi. Ilmiy maktab ilmiy an'analarning davomiyligini ta'minlash vositasi.

**29 - mavzu. Iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati**

Iqtisodiyot nazariyasida ratsionallik tushunchasi. Axloq tadbirkorlikning falsafiy tamoyili. Iqtisodiyot nazariyasida inson modellari. Tadbirkorlik faoliyatining estetik jihatlari. Mulk falsafiy tahlil predmeti sifatida. Xo'jalik faoliyatining sub'ektlari.

**30 - mavzu. Rivojlanishni prognozlashtirish istiqbollari**

Prognozlashtirish tushunchasi va uning ijtimoiy jarayonlar rivojida ahamiyati. Innovatsion jarayonlarni prognozlashtirish. Barqaror taraqqiyot va ta'lim rivojlanishining istiqbollari.

**3-MODUL. GNOSEOLOGIYA**

**31 - mavzu. Bilishning mohiyati va ma'nosi**

Gnoseologiyaning mazmun va mohiyati. Gnoseologiyaning asosiy mezonlari. Epistemologiyaning ta'rifi. Epistemik nisbiylik. No-normativ ijtimoiy epistemologiya. Bilish falsafasi: metodologik yondashuvlar dialogi, optimizm, skeptitsizm, agnostitsizm dunyoni bilishga nisbatan munosabat shakllari. Gnoseologik relyativizmning o'ziga xos xususiyatlari. Bilimning asosiy turlari. Bilim shakllari. Noilmiy bilim shakllari. Bilishning ichki mantiqi. Hozirgi zamon bilishining xususiyatlari. Ijtimoy-gumanitar bilimning ahamiyati. Tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikning o'xshash jihatlari va farqlari. Matnning falsafiy - metodologik tahlili ijtimoiy bilim negizi. Matn - har qanday ijtimoiy fanning birlamchi borlig'i. Ijtimoiy fanlarning kognitiv amaliyotdagi roli. Matnlarning yashirin mazmunini aniqlashning zarurligi. Falsafiy metodologiya va adabiyotshunoslik metodologiyasi. Ijtimoiy - gumanitar bilimda makon, vaqt va xronotop uyg'unligi.

**32 - mavzu. Bilish nazariyasi falsafiy fan sifatida**

Bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi. Bilish nazariyasining tarixiyligi. Bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi. Bilish faoliyat turi sifatida. Bilish nazariyasi va kibernetika. Bilish taraqqiyoti modellarining mantiqiy tahlili. Bilish reallikning in'ikosi sifatida. Bilishdagi qarama-qarshiliklar. Bilimning reallik bilan mutanosibli. Ratsionalizm va empirizm bilan munosabat. Ilmiy ratsionallik haqidagi yangi tasavvurlar. Ilmiy bilishda ratsionallik va irratsionallik. Bilish faoliyati strukturasi. Bilish nazariyasining tanqidi.

### **33 – mavzu. Ilmiy bilimning ijtimoiy o'lchamlari**

Ilmiy bilim ijtimoiy mo'jallari. Guvohlar va ekspertlar shohidligiga asoslanuvchi haqiqatlar. Ijtimoiy hayot haqidagi bilimning guvohlikning o'rni. Jamoatchilik fikri va bilim dialektikasi. Ekspertlar fikri va bilim mutanosibligi. Guruhlar epistemologiyasi. Guruh ratsionalligi va guruh asosida shakllanuvchi bilim. Guruh qarashlari va guruh bilimi. Epistemik jamoalarining kommunikatsion tuzilishi. Bilim relyativizmi va uning xilma xilligi. Bilim relyativizmi (nisbiyligi) nazariyasi va uning ijtimoiy muhit bilan bog'liq jihatlari. Epistemik ziddiyatlar va ularning xilma - xilligi. Epistemik relyativizm. Epistemik ziddiyat manbalari va sabablari. Diniy bilimlarning xilma xilligi va ziddiyatlari.

### **34 - mavzu. Sharq mutafakkirlari ijodida bilish va bilim dialektikasi**

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining bilish va bilim haqidagi qarashlari tasnifi. Markaziy Osiyo bilish nazariyasining xususiyatlari. Sufizm gnoseologiyasi. Sufizm bilish nazariyasida sub'ekt va ob'ekt masalasi. Sufizm haqiqatni bilish muammosi. Sufiylar ta'limotida aql va tafakkur rolining cheklanganligi masalasi. Sufiylar ta'limotida hissiy va ratsional bilimlarning mutanosibligi.

### **35 - mavzu. G'arb mutafakkirlari bilish nazariyasi haqida**

Qadimgi dunyo va O'rta asrda gnoseologik qarashlar tasnifi. O'rta asr faylasuflari ijodida gnoseologiya muammolari. Realizm va nominalizm ta'limoti. Qadimgi va o'rta asr bilish nazariyasining metodik ahamiyati. Uyg'onish va Yangi davr mutafakkirlari bilim va bilish dialektikasi haqida. Yangi davrda falsafiy tafakkurning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-madaniy omillar. Ma'rifatparvarlarning gnoseologik qarashlari.

### **36 - mavzu. Nemis klassik falsafasi namoyondalarining gnoseologik ta'limotlari**

Nemis klassik falsafasida gnoseologiya qarashlar dinamikasi. Kant narsa o'zida haqida. Kantning gnoseologik relativizmi. Gegel ruh fenomenologiyasi haqida. Sheler ta'limoti. Feyerbaxning ta'limoti. Nemis klassik gnoseologiyasining ahamiyati.

### **37 - mavzu. XX asr G'arbiy Yevropa gnoseologiyasi**

XX asr G'arbiy Evropa falsafasida gnoseologiya. XX asrning gnoseologik muammolari. Pozitivizm soxta bilimni haqiqiy bilimdan farqlash haqida. Empiriokrititsizm pozitivizmning ikkinchi tarixiy shakli. Neopozitivizm ilmiy bilish metodologiyasi. Postpozitivizmning to'rtinchi shakli. Postpozitivizm tugallangan klassika. Strukturalizm va poststrukturalizm dialektikasi.

### **38 – mavzu. Demokratiya epistemologiyasi**

Demokratiya epistemologiyasi tushunchasining tavsifi. Pragmatik va epistemik demokratiya. Demokratik davlat tizimida fan va ishlab chiqarish mutanosibligini ta'minlashning epistemik jihatlari. Demokratiyaning epistemik afzalliklari. Ijtimoiy epistemologiyaning rivojlanish istiqbollari.

Deskriptiv va normativ ijtimoiy epistemologiya. Epistemik normalar va ijtimoiy normalar. Individual fazilat va salohiyatning bilim dinamikasidagi roli. Ta'lim maqsadlari. Bilim dinamikasiga iqlim o'zgarishlarining ta'siri.

### **49- mavzu. Hissiy, empirik, nazariy va mantiqiy bilish darajalarining mutanosibligi**

Hissiy darajadagi bilim va uning shakllari. Empirik bilim va uning shakllari. Nazariy bilim va uning shakllari. Tafakkur va uning mohiyati. Hissiy, empirik va ratsional bilish birligi. Bilishning empirik va nazariy darajalarini farqlash mezonlari.

#### **40 - mavzu. Intuitiv bilishning o'ziga xos xususiyatlari**

Intuitsiya va ijod. Falsafa tarixida intuitsiyaga munosabat. Intuitsiyaning bilishdagi roli. XX asrda intuitsiya haqidagi qarashlar evolyusiyasi. Bergson intuitivizmi.

#### **41 - mavzu. Haqiqat bilish mezonlari**

Haqiqat bilish nazariyasining bosh kategoriyasi. Falsafa tarixida haqiqatga oid qarashlar dinamikasi. Haqiqatning asosiy shakllari. Haqiqatning korrespondent, kogerent va pragmatik konsepsiyalari. Isbotlash va rad etishning haqiqatni bilishdagi roli. Emotsiyalar, iroda, ishonch, ideallar haqiqatni bilish vositasi. Bilish natijalarini baholashning ahamiyati. Bilishning ma'naviy qadriyatlari. Verifikatsiya tamoyili. Yolg'on va yanglishish haqiqatning ziddi.

#### **42 - mavzu. Amaliyot va nazariya birligi**

Amaliyot falsafasi. Nazariyaga umumiy tasnif. Nazariya va amaliyot mutanosibligi. Xaqiqatga erishishda nazariy bilimlar dialektikasi. Nazariya taraqqiyotining asosiy sabablari (tashqi va ichki). Nazariy bilimlarning bir-biridan farqi va birligi. Bilimning haqiqiyliigi va amaliyot mezonini baholash. Ilmiy bilishda nazariyani asoslash dilemmasi.

#### **43 - mavzu. Bilish metodologiyasi: asosiy tushunchalar**

Metod, metodologiya va metodika tushunchalari. Paradigma metodologiyaning tayanch tushunchasi. Ilmiy tadqiqot dasturi va uning strukturasi. Metodlarning tasnifi: fan metodlari, fanlararo tadqiqot metodlari, empirik tadqiqot metodlari, nazariy bilish metodlari, umumiy mantiqiy metodlar. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodlari.

#### **44 - mavzu. Hozirgi zamon metodologiyasi**

Olamni bilishning hozirgi zamon metodlari: kumatoid, abduksiya, keys stadi. Evristika va fan metodologiyasi. Asosiy evristik metodlar. Yangi metodologiya: kompyuterlashtirish, tizimli yondashuv, sinergetika. Fanni kompyuterlashtirish muammolari va oqibatlari. Kompyuter va bilish faoliyatida yangi tafakkur tipining shakllanishi. Epistemologiya va kognitiv fan mutanosibligi. Freymlar nazariyasining epistemologik mazmuni.

#### **45 - mavzu. Tushunish san'ati**

Tushunish va uning bilish bilan mutanosibligi. Ma'no tushunchasining tahlili. Talqin qilishning ahamiyati. Matn ma'nosini tushunishning ahamiyati. Matnning serma'noligi. Germenevtik doira tamoyili. Ongli tushunish va ongsiz tushunish. Semiotika va semiotik belgilar tasnifi. Simvol ramzlar haqidagi ta'limot. Simvollarning tasnifi.

#### **46 - mavzu. Tushuntirish san'ati**

Tushuntirishning tahlili. Tushuntirishning deduktiv nomologik modeli. Teleologik yoki intensional tushuntirish. Tushuntirish va tushunishning o'zaro nisbati. Interpretatsiya va konvetsiyaning mutanosibligi. Interpretatsiya bilishning tayanch asosi. Germenevtika interpretatsiya nazariyasi. Interpretatsiya va ijtimoiy bilish qadriyatlari. Interpretatsiya tabiiy fanlarning umumiy metodi. Konvensiya – bilish va kommunikatsiyalarning umumiy metodi. Konvensiyaning ijtimoiy tabiati. Ijtimoiy gumanitar fanlarda konvensiyaning amal qilish mexanizmlari.

#### **47 - mavzu. Til va kommunikatsiya mutanosibligi**

Til falsafasi. Nutq aktlari nazariyasi. Kommunikatsiya shakllari evolyusiyasi. Mass media davrida kommunikatsiya. Til va obraz mutanosibligi. O'yin tilni tushunish vositasi. Til va harakat uyg'unligini ta'minlashning ahamiyati. Til funksiyalari: madaniyatni yaratish, ijtimoiy integrativ, ijtimoiylashuv. Mumtoz kommunikativ tizimda til belgilar sifatida. Zamonaviy mass media audio-vizual belgilar tizimi sifatida. Televideniedagi mediakratik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.

#### **48 - mavzu. Dialog va dialogistika falsafasi**

"Dialog", "dialogistika" tushunchalarining mazmuni va tarixiy-falsafiy ildizlari. Dialogning germeneytik va sinergetik tahlili. Dialogning ontologik, gnoseologik va epistemologik qarashlar rivojiga ta'siri. Dialog yaxlitligi va uning mantiqiy talqini. Dialogning falsafiy bilimlar rivojiga ta'siri. Ilmiy bilishda dialogni namoyon bo'lish xususiyatlari. Dialogning madaniy-ma'rifiy jihatlari. Ijtimoiy dialogda so'z va fikr erkinligining namoyon bo'lishi. O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirishda dialogning o'rni.

#### **49 - mavzu. Ilmiy bilishda axborotlashuvning roli**

Informatsiya, informatsion jamiyat, informatsion texnologiyalar tushunchasi. Bilimning informativligi. Informativlik mazmunining asosiy jihatlari. Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasi. Informatizatsiya tushunchasining tahlili. Informatika axborot texnologiyasining negizi. Ijtimoiy informatika. Axborot inqilobi. Axborot texnologiyasi. Nanotexnologiyalar va biotexnologiyalarning ijtimoiy makondagi roli. Informatsion vaziyatning bilishdagi ahamiyati. Ijtimoiy axborot, ilmiy axborot va axborot texnikasi tushunchalarining tasnifi.

#### **50 - mavzu. Virtual reallik texnologiyalarining falsafiy jihatlari**

Virtual reallik tushunchasining asosiy xossalari va funksiyalari. Virtual reallikning nazariy asosi: turli o'yinlar, konstruksiyalar va fantastik badiiy asarlar. Virtual dunyolar haqidagi tasavvurlar: mif yoki reallik. Virtual dunyo real dunyoni ifodalovchi asosiy vosita. Kompyuterdagi virtual reallik. Virtual reallik texnologiyalarining yaratilish bosqichlari. Virtual reallikda jarayonlarni boshqarish imkoniyati. Virtual dunyoning ijobiy va salbiy jihatlari. Modellashtirish virtual reallikning funksiyasi. Virtual reallik va sun'iy reallik. Virtual reallikdagi irratsionallik. Madaniyatning virtualligi. Virtual reallikning to'rtinchi o'lchovi. Haqiqiy borliq va virtual reallikning nomutanosibligi. Virtual reallik va shaxs. Virtual reallik va omma harakati. Axborot va kompyuter texnikasining ijobiy va salbiy jihatlari. Kompyuterdagi virtual reallik. Global internet tarmog'i global virtual muloqot vositasi.

#### **51 - mavzu. Sun'iy intellekt bilim mahsuli**

Sun'iy intellekt tushunchasi va uning tahlili. Sun'iy ong rivoji haqidagi ta'limotlar evolyusiyasi. N.Viner sun'iy intellekt haqida. Sun'iy intellekt masalasida epistemologik va metodologik yondashuvlar. A.Tyuring testi. L.Memfordning megamashinalar haqidagi ta'limoti. A.Azimov robototexnika haqida. Robotlar va sun'iy intellekt. Sun'iy intellektning potensial imkoniyatlari. Inson tafakkuri va sun'iy intellekt munosabati. S.Jobs sun'iy intellektni yaratish haqida. 6-avlod kompyuterlari. Superkompyuterlar. Zamonaviy robototexnika taraqqiyoti. Sun'iy intellektni yaratishning ijobiy va salbiy jihatlari.

#### **52 - mavzu. Dunyoning mifologik va diniy manzarasi**

Dunyoning mifologik manzarasi. Dunyoning diniy manzarasi. Diniy dunyoqarashda tabiiy ilmiy bilimlarning shakllanishi. Dunyoning buddaviylik diniy manzarasi. Xristian

ilohiyotida dunyoning manzarasi. Islom dinida dunyo manzarasi. Dunyoning falsafiy manzarasi. Dunyoning diniy, falsafiy va ilmiy manzarasining o'zaro nisbati.

### **53 - mavzu. Dunyoning falsafiy va badiiy manzarasi**

Dunyo falsafiy manzarasini tushunishda dunyoqarash fenomeni. Bevosita va bilvosita dunyo manzaralarining epistemologik jihatlari. Dunni estetik idrok etishda badiiy asarlar, kino va san'atning roli. Kognitiv dunyo manzarasi chizg'ilari. Dunyo manzarasini tushunishda bilimning ahamiyati.

### **54 - mavzu. Dunyoning ilmiy manzarasi (klassik va noklassik manzarasi)**

Dunyoning ilmiy manzarasi. Dunyoning klassik va noklassik manzarasi. Dunyoning hozirgi zamon ilmiy manzarasi. Ijtimoiy bilishda dunyoning manzarasi.

### **55 - mavzu. Dunyoning postnoklassik manzarasi**

Dunyo postnoklassik manzarasining ustivor yo'nalishlari. Dunyoning postnoklassik manzarasida nochiziqli tafakkur imkoniyatlari. Postnoklassik nazariy bilish va bilimning o'ziga xos xususiyatlari. Postnoklassik fanlar va zamonaviy ta'lim dialektikasi.

### **56 - mavzu. Dunyoning ezoterik manzarasi**

Dunyoning ezoterik manzarasi shakllanishining falsafiy jihatlari va ontologik mazmuni. Okkultizm, spiritizm va mistitsizmning noilmiy bilim shakli sifatidagi mohiyati. SHarq va G'arb ezoterik ta'limotlarining asosiy xususiyatlari. Falsafiy ta'limotlarda dunyoning ezoterik manzarasi. Falsafiy va ezoterik bilimlar o'zgaruvchanligining dinamikasi. Ezoterizm da borliqni bilishning o'ziga xos jihatlari

### **57 - mavzu. Ijtimoiy-madaniy munosabatlarda dunyoning ezoterik manzarasi**

Tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarda ezoterik bilimning maqomi. Ijtimoiy-madaniy hayotda dunyoning ezoterik manzarasi evolyusiyasi. Dunyoning ezoterik manzarasida til va kommunikatsiya mutanosibligi.

### **58 - mavzu. Ilmiy tafakkur uslubi evolyusiyasi**

Ilmiy tafakkur uslubi tushunchasining tahlili. Tafakkur uslubi matritsasining ahamiyati. Kompyuter tafakkuri va bilish faoliyati yangicha tipining shakllanishi. Klipli tafakkur tushunchasi va uning ijtimoiy madaniy jarayonlardagi o'rni. Klipli tafakkurning modellari. Tanqidiy tafakkur evolyusiyasi. Tafakkur uslubi inersiyasi.

### **59 - mavzu. Dunyoni bilishda aql va tafakkur uslubi dialektikasi**

Dunyoni bilishda sezgi, idrok, aql va tafakkur uslubi mutanosibligini ta'minlashning epistemologik jihatlari, Tafakkur, til va nutq dialektikasining ontologiyasi, Tafakkur uslubi transformatsiyasining gnoseologik va dunyoqarashga doir omillari, dunyoni tushunishda aql va tafakkur uslubi imkoniyatlari, Dunyoni tushunish tafakkur uslubi imkoniyatlari haqidagi qarashlar tasnifi, Inson tafakkur uslubida innovatsiyalarga munosabatning tiplari, Tafakkur uslubi va prognozlashtirishda dialektikaning roli.

### **60 -mavzu. Texnogen madaniyatda fan**

Sivilizatsiya tarixida fanning shakllanish asoslari. Dastlabki fan bosqichida inson faoliyati. Haqiqiy fan imkoniyatlari. Texnogen madaniyatda fan. An'anaviy va texnogen sivilizatsiyaning farqlari. Fan asoslari. Fan ideallari va me'yorlarining o'zaro mutanosibligi va farqi. Fanning bilish ideallari. Raqamli texnologiyalar davrida fan imkoniyatlari.

### III. Seminar mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

#### Mavzuning nomlanishi

##### 1-bo'lim. Ontologiya

1. Ontologiya falsafiy bilim asosi
2. Borliqning tuzilishi va shakllari
3. Qadimgi dunyo va O'rta asrlarda borliq haqidagi tasavvurlar
4. Sharq mutafakkirlarining borliq haqida ta'limotlari
5. Uyg'onish davri va Yangi davrda borliq haqidagi ta'limotlar
6. Borliqning noklassik konsepsiyalari
7. Borliq tuzilishida makon va vaqt dialektikasi
8. Ijtimoiy vaqt va uning shakllari
9. Harakat borliqning yashash sharti.
10. Tabiat borlig'i
11. Biosfera borliq shakli
12. Tabiat borlig'ida energiya fenomeni
13. In'ikos nazariyasi
14. Inson borlig'i

##### Nogironlik falsafasi<sup>2</sup>.

Nogironlik an'anaviy uchun kuchli va qiziqarli muammodir falsafiy farazlar va tamoyillar. Bu kurs tekshiradi nogironlikka turli falsafiy yondashuvlar - tarixiy, individual va tibbiy paradigmalari, shuningdek, tayanadiganlar ijtimoiy yoki inson huquqlari doiralari.

15. (Philosophies of Disability PHIL 2124. 3 Credits. Disability presents an intense and interesting challenge to traditional philosophical presuppositions and principles. This course examines various philosophical approaches to disability—historical, individual, and medical paradigms as well as those that rely on frameworks of social or human rights. Same As: PHIL 2124W.)

##### 2-bo'lim. Rivojlanish falsafasi

16. Dialektika - o'zaro aloqadorlik va rivojlanish haqidagi ta'limot
17. Dialektikaning muqobillari.
18. Sinergetika - o'z-o'zini rivojlantiruvchi tizim
19. Dialektikaning asosiy tushunchalari
20. Dialektikaning umumiy qonunlari
21. Dialektikaning asosiy kategoriyalari tasnifi
22. Falsafiy kategoriyalar
23. Jamoa tafakkuri rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.
24. Barqaror taraqqiyot metodologiyasi
25. Tabiiy jarayonlarda barqarorlik va beqarorlik dialektikasi
26. Ijtimoiy-madaniy jarayonlarda barqarorlik va beqarorlik dialektikasi

<sup>2</sup> Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda top 300 talik ro'yxatga kiruvchi George Washington University, Washington D.C. AQSH (32 o'rin) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.

27. Rivojlanish paradigmalari va ijtimoiy ong stereotiplari
28. Ijtimoiy fanlarda ilmiy maktablarni rivojlantirish
29. Iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati
30. Rivojlanishni prognozlashtirish istiqbollari

### **3-bo'lim. Gnoseologiya**

31. Bilishning mohiyati va ma'nosi
32. Ijtimoiy gumanitar bilish va bilim mutanosibligi
33. Qadimgi dunyo va O'rta asrlarda bilish nazariyasi rivojlanishining tarixi
34. Sharq mutafakkirlari ijodida bilish va bilim
35. Bilim va bilish Uyg'onish va Yangi davr mutafakkirlari ijodida
36. Nemis klassik falsafasi namoyondalarining gnoseologik ta'limotlari
37. XX asr G'arbiy Yevropa gnoseologiyasi
38. Bilish nazariyasi falsafiy fan sifatida
39. Hissiy, empirik, nazariy va mantiqiy bilish darajalarining mutanosibligi
40. Intuitiv bilishning o'ziga xos xususiyatlari
41. Haqiqat bilish mezonlari
42. Amaliyot va nazariya birligi
43. Bilish metodologiyasi: asosiy tushunchalar
44. Hozirgi zamon metodologiyasi
45. Tushunish san'ati
46. Tushuntirish san'ati
47. Til va kommunikatsiya mutanosibligi
48. Dialog va dialogistika falsafasi
49. Ilmiy bilishda axborotlashuvning roli
50. Virtual reallik texnologiyalarining falsafiy jihatlari
51. Sun'iy intellekt bilim mahsuli
52. Dunyoning mifologik va diniy manzarasi
53. Dunyoning falsafiy va badiiy manzarasi
54. Dunyoning ilmiy manzarasi (klassik va noklassik manzarasi)
55. Dunyoning postnoklassik manzarasi
56. Dunyoning ezoterik manzarasi
57. Ijtimoiy-madaniy munosabatlarda dunyoning ezoterik manzarasi
58. Ilmiy tafakkur uslubi evolyusiyasi
59. Dunyoni bilishda aql va tafakkur uslubi dialektikasi
60. Texnogen madaniyatda fan

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### **IV. Kurs ishi**

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishi topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining xajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda xizmat qilishi kerak.

Kurs ishi uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Dunyoning fizik manzarasi va uning ontologik maqomi
2. Hozirgi zamon matematikasining falsafiy muammolari
3. Evropa kosmologik g'oyalari: epistemologik burilish
4. Sinergetika: uning predmeti va metodlari
5. Biosfera va noosfera borliq shakli.

6. Borliqda in'ikos, energiya va axborotning o'zaro ta'siri.
7. Dunyoning falsafiy va badiiy manzarasi dialektikasi
8. Dialektika - o'zaro aloqadorlik va rivojlanish haqidagi ta'limot.
9. N.Moiseyevning universal evolyusionizm g'oyasining ijtimoiy ahamiyati.
10. Barqaror taraqqiyotning metodologik asoslari va tarixiy mezonlari.
11. Tabiiy va ijtimoiy jarayonlarda barqarorlik va beqarorlik dialektikasi.
12. Gnoseologiya va epistemologiya o'zaro aloqasi va farqi.
13. Bilish faoliyatida ratsionallik va irratsionallik dinamikasi.
14. Ijtimoiy gumanitar bilish va bilim mutanosibligi.
15. Gnoseologiyaning rivojlanish tarixi: Qadimgi dunyo va O'rta asrlar.
16. Ijtimoiy jarayonlarda barqarorlik va beqarorlik dialektikasi
17. Dunyoning noklassik manzarasi va uning evolyusiyasi
18. Interpretatsiya va konvetsiyaning mutanosibligi.
19. Til va kommunikatsiyalar mutanosibligi.
20. Dialog va dialogistika falsafasi.
21. Ilmiy bilishda axborotlashuvning roli.
22. Virtual reallik texnologiyalarining falsafiy jihatlari.
23. Dunyoning ilmiy manzarasi va uning evolyusiyasi.
24. Ilmiy tafakkur uslubi evolyusiyasi.
25. Sun'iy intellekt bilim mahsuli.
26. Yangi bilimlarni yaratish dialektikasi.
27. Dunyoni bilishda aql va idrok dialektikasi
28. Dunyoning tabiiy ilmiy manzarasi
29. Dunyoning xolonom manzarasi
30. Tafakkur uslubi inersiyasi va uning o'zgaruvchan xarakteri

#### V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Platonning "Dialogi" asarini konspektlashtirish
2. Gegelning Ruh fenomenologiyasi asarida tabiat borlig'i talqini (Esse)
3. Forobiyning borliq haqidagi ta'limoti va uning g'arb mutafakkirlari qarashlaridan farqining qiyosiy tahlili (esse)
4. Ibn Sinoning Xay ibn Yakzon o'g'li risolasining ma'nosi bo'yicha T-sxemasi asosida taqdimot tayyorlash
5. J.Rumiyning "Ichingdagi ichindadir" asari bo'yicha esse taqdimoti
6. I.Kantning Sof aqlning tanqidiga doir asari bo'yicha esse taqdimoti
7. M.Xaydeggerning Borliq va vaqt asari bo'yicha esse taqdimoti
8. M.Xaydeggerning Borliq va vaqt asarining ma'nosi bo'yicha esse.
9. Nitshe ijodida borliq haqidagi g'oyalarnig noklassik talqini bo'yicha esse tayyorlash
10. Borliqning germeneytik talqini Gadamer va Xaydegger ta'limotlarning qiyosiy tahlili
11. Klipli tafakkurning namoyon bo'lish usuli bo'yicha rolik tayyorlash
12. Virtual borliq texnologiyalarining ijtimoiy ahamiyati
13. Falsafa tarixida borliq muammosi
14. Noklassik borliq va uning o'ziga xos jihatlari
15. Borliqni anglashga falsafa va fan sintezi.
16. Universal kosmik gologramma nazariyasi va uning hozirgi davrdagi ahamiyati bo'yicha videorolik taqdimoti

17. I.Kantning kosmologik antinomiyalari va ularning hozirgi talqini krossvord tayyorlash.

18. Olamning cheksizligi g'oyasining falsafiy asoslari.

19. Relyativistik kosmologiyada olamning cheksizligi muammosi.

20. XX asrda tabiatga munosabat: ekologik tanglikning vujudga kelishi. O'zbekistonda ekologik vaziyat va uni bartaraf qilish yo'llari va usullari.

21. Dekartning metodlar haqida mulohazalar risolasi ma'nosining tahlili

22. P. de Sharden va N. Vernadskiy noosfera haqidagi ta'limoti.

23. Energiya haqida tasavvurlar dialektikasi.

24. Energetizm va olamning issiqlikdan o'lish konsepsiyasining tanqidiga odi qarashlar evolyusiyasi.

25. Antrop tamoyilning o'ziga xos xususiyatlari

26. E.Frommning ruh haqida (O dyne) asarining ma'nosi bo'yicha taqdimot tayyorlash

27. Irratsionalizm ong haqida Freyd va Yung ta'limotlarining qiyosiy tahlili.

28. Umumiy o'zaro aloqa va rivojlanishning dialektik tamoyillari.

29. Hozirgi zamon fani borliqning beqarorligi haqida

30. Kvantlar nazariyasi elementar zarralarning tartibsizligi haqida.

31. XX asrda kategoriyalarga munosabat.

32. Sinergetika sababiyat haqida.

33. Hozirgi davrda rivojlanish muammosi tahlilida sodir bo'lgan inqirozning mohiyati.

34. Ijtimoiy gumanitar bilim muammo sifatida.

35. Al-Kindiyning Sharqona perepatizmi.

36. Davrning ruhi va ijtimoiy makon uyg'unligi

37. Simvollar nazariyasining ijtimoiy ahamiyati

38. Semiotika belgilar haqidagi ta'limot

39. Aristotelning Metafizika asarining ma'nosi bo'yicha taqdimot tayyorlash

40. L.N. Gumilevning Etnogenez va biosfera asarining taqdimoti

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

### VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

3. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Borliq tushunchasining ma'nosi sof borliq g'oyasi, borliq va yo'qlik dialektikasi, falsafa tarixida borliqqa munosabat, energiya va energetizm, informatsion energetik axborot almashinuvi, tabiat borlig'i haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;

- Inson borlig'i, ma'naviy borliq virtual borliq, qonun va kategoriyalarni, munosabatdosh kategoriyalarning tasnifi, bilish darajalari va turlari, haqiqatning kogerent, pragmatik va korrespondent konsepsiyalarini, ilmiy inqiloblarning asosiy davrlarini, dunyoning ilmiy manzarasini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- Noklassik borliqning shakllari, substansiya va materiya, harakat va uning shakllari va tiplari, makon va vaqt tushunchasi va uning konsepsiyalari, noosfera va biosfera, dunyoning birligi va xilma-xilligi, geotsentrik va noogeotsentrik moddiy tizimlar haqida *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

4. VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;

- interfaol keys-stadilar;

- seminarlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);

- guruhlarda ishlash;

- taqdimotlarni qilish;

- individual mustaqil ta'lim ishlari, loyihalar;

- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**  
Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

6. **Asosiy adabiyotlar:**
1. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. – Toshkent: Noshir, 2013. 460 b.
  2. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya – Bilish nazariyasi. –Toshkent:Noshir, 2011. 460 b.
  3. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya (rus). –Toshkent: O'FMJ. 2007.
  4. Shermuxamedova N.A. Falsafa. – Toshkent: 2022
  5. To'rayev B. Borliq. Samarqand-Toshkent. Imom Buxoriy ilmiy tadqiqot markazi. 2022.
  6. Романенко Ю.М Бытие и естество. –СП(б): Алетейя,2003. 779-с.
  7. Босенко В.А. Всеобщая теория развития. – Киев: 2001.
  8. The Political Philosophy of George Washington (The Political Philosophy of the American Founders) [https://www.amazon.com/Jeffrey-H-Morrison/e/B001HP5FQG/ref=dp\\_byline\\_cont\\_book1](https://www.amazon.com/Jeffrey-H-Morrison/e/B001HP5FQG/ref=dp_byline_cont_book1).

- Qo'shimcha adabiyotlar**
8. Аристотель Метафизика. – Москва: 1998
  9. Антология мировой философии. В 4-томах; под редакцией В.В. Соколова и др. 1971.
  10. Азимова Р.Д. Человековедение наука 21 века. –Азарбайджан: 2011. -167 с.
  11. McCray, A. (2003). An Upper Level Ontology for the Biomedical Domain. Comparative and Functional Genomics, 4, 80-84.
  12. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
  13. Вернадский В.И. Живое вещество и биосфера. –Москва: 1994.
  14. Shermuxamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2008. 420 b.
  15. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003 – 341.
  16. Kerry E. Howell. The philosophy of methodology. -India: 2013.
  17. To'rayev B.O. Sinergetika. Mohiyati, qonunlari va amaliyotda namoyon bo'lishi. –Toshkent: Navruz nashriyoti. 2017, 359 b.
  18. To'rayev B.O. Ontologiya va gnoseologiya muammolari. –Toshkent. 2015. 450 b.
  19. To'rayev B.O va boshqalar. Sinergetika-2 nazariya amaliyot. –Toshkent: Fan ziyosi. 2022.
  20. Qurbonova L. A. Antrapologiya va elitalogiya uyg'unligining falsafiy metodologik xususiyatlari. Fals. fanlari dokt. dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zMU kutubxonasi. 2018 – 240 b.
  21. Махкамов У. Dialog – ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishning metodologik omili. “VNESHINVESTPROM”. –Toshkent: 2022. -179 b.
  22. Xidirov M. Dunyoning ezoterik manzarasi. –Toshkent: “VNESHINVESTPROM”. 2022. –136 b.
  23. Юань Кэ Мифы древнего Китая. – Москва: Наука, 1987.
  24. Шри Ауробиндо Основы индийской культуры. – Санкт-Петербург 1998.
  25. Чумаков А.Н. Глобализация. 3-издание. – Москва: ООО, Проспект, 2017. – 446 с.

2. [www.philosophy.ru](http://www.philosophy.ru).
3. <http://www.intencia.ru>.
4. <http://www.anthropology.ru>
5. <http://www.ido.rudn.ru>.
6. <http://www.filosofia.ru>.
7. <http://www.falsafa.dc.uz>.
8. <http://www.phenomen.ru>.
9. <http://www.platona.net>

Fan dasturi Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan. BuxDU Kengashining 2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Fan/modul uchun muallif: **Namozov B.B.** BuxDU, "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori, professor

**Dehqonov B.B.** BuxDU, "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrası v.b. dotsenti, PhD

Taqrizchilar: **Zoirov E.X.** BuxMTI "Ijtimoiy fanlar" kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori (turdosh OTM).

**Sharipov A.Z.** BuxPI "Ijtimoiy fanlar" kafedrası mudiri, falsafa fanlari nomzodi, professor (turdosh OTM)